



**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**DEVELOPMENT OF THE EDUCATION SYSTEM AND PEDAGOGICAL  
SCIENCE IN WORLD COUNTRIES IN THE MODERN ERA**

Student of Termiz State Pedagogical Institute

**Sulaymonova Charos Farhod Qizi**

[sulaymonovaanora97@gmail.com](mailto:sulaymonovaanora97@gmail.com)

**Abstract:** This article introduces the education system of the Republic of Korea, its history, teaching methods, and other interesting facts. It explores the unique characteristics of the South Korean educational model and its evolution over time.

**Keywords:** Education, history, culture, tradition, holidays, upbringing, education system

**HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMI VA  
PEDAGOGIKA FANI RIVOJI**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABASI

**Sulaymonova Charos Farhod Qizi**

[sulaymonovaanora97@gmail.com](mailto:sulaymonovaanora97@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Koreya Respublikasidagi ta'lim tizimi, uning tarixi, o'qitish usullarivaboshqa qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishtirish.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarix, madaniyat, urf - odat, bayramlar, tarbiya, ta'lim tizimi.

Hozirgi davrda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan kengqamrovliislohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni, ularni o'zlaridagi iste'dodlarini ommagaro'yobgachiqarish, yoshlarni chuqur bilim olishlari, ularni har tomonlama qo'llab - quvvatlash, shubilanbirgalikda ularni kelajakga, joyga tayyorlash ko'nikmalarini shakilantirish ta'limtizimini gustuvoryo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hattoki prezidentimiz ham Shavkat Mirziyoyev: "Yangi O'zbekiston asosiy ustuni - bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi" deb ta'kidlaganlar. O'z nutqlari mobaynidashundaydeganlar: biz "Yangi O'zbekistonni bunyod etishda sog'lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchikuch deb bilamiz. Shu maqsadda ular uchun yangi





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

tizim yaratamiz, ularning bilim, sport, madaniyat, san'at salohiyatlarni ro'yobga chiqarish uchun. Qadirli farzandlar, bir narsadan ko'nglingiz to'qbo'lsin: sizlarning qobilyat va iste'dodingiz ro'yobga chiqarish uchun biz bundan buyon hambarchasharoitvaimkoniyatlarni, albatta yaratib beramiz, aziz o'g'il-qizlarim!" – dedilar Shavkat Mirziyoyev.

Xalqaro ta'lim standart klassifikatsiyasi 1997- yilda XTSK (Xalqaro ta'lim standart klassifikatsiyasi) yangilandi. Unda yettita bosqich ko'rsatilgan. 0- maktabgacha ta'lim; 1- boshlang'ich ta'lim; 2- o'rta ta'limning birinchi bosqichi; 3- o'rta ta'limning ikkinchi bosqichi; 4- o'rtata'limdan keyingi ta'lim ( oliy ta'lim emas); 5- oliy ta'lim birinchi bosqichi; 6- oliy ta'limning ikkinchi bosqichi- oliy ta'limdan keyingi ta'lim.

Ko'pgina rivojlanyotgan davlatlarda masalan, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya, AQSh va boshqa davlatlar ya'nada rivojlanishi uchun ta'lim tizimiga o'zgartirishlar kiritildi. Barcha davlatlar tarixida davlatning ta'lim tizimini qanday, qanchalik rivojlanyotganligi hozirgi fikrimizning yorqin isboti bo'ladi. Masalan, Koreyadagi ta'lim tarixi Koreyaning Uch Qirolligiga yoki hatto ibtidoiy jamiyatga davriga borib taqaladi. O'sha paytda xususiy maktablar ham, davlat maktablari ham juda mashhur edi. Koreyada xalq ta'limi milodiy 400- yillarda yoq tashkil etilgan. Koreya ta'limiga tarixiy jihatdan konfutsiylik va buddizm ta'sir ko'rsatgan.

Koreyada yaxshi ta'lim olish har qanday koreysning martabasini shakillantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim tizimi Koreyada rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo'lgan 1945- yildan boshlanadi. 1894- yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan deyish mumkin koreyslar ta'lim tizimini. Koreyadagi Choson hukumati mamlakati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish rejasida maxsus armiya tuzadi. Keyin esa g'arbliklar harbiy san'atda dars berishni boshlashadilar. Shu bilan bir qatorda chet tili va boshqa fanlar yuzaga kela boshlaydi. 1894- yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtiriladi. Institutlar ta'lim tizimi tashkil etiladi. 1895- yili esa boshlang'ich





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

maktablar va kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuziladi. Koreyada ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan. Ular 6- yil quyi maktab, 3- yil o'rta yana, 3- yil oliy maktab, so'ngra 4 yillik kollejlari va bakalavr unvoni 2024 beriladi. Magistr unvoni uchun tanlangan fan yana 2 yil chuqur o'rganilgandan so'ngra olishlari mumkin. Fan do'ktiri bo'lish uchun 3 yil yana vaqt sarflashlari lozim.

Lekin 1991- yilda boshlangan noroziliklar tufayli Yaponiya hukumati buyruqga o'zgartirishlarni kiritdi. Bundan boshlang'ich ta'lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi. 1922- yili 4- fevralda " 3- Choson ta'lim buyrug'i " qabul qilindi. Bunday buyruqga ko'ra, ta'lim muddati uzaytirildi. Shu tariqa oddiy maktablarda ta'lim 6 yil, ayollar maktablarida 5 yil deb belgilandi. Shu jumladan, 1924- yilida Kyongson Davlat Universiteti ochildi. O'rta va yuqori oddiy va boshlang'ich maktablari birlashtirildi. Imperiyaxalq demokratiyasi fani kiritilib, koreys tili fani kamaytirildi. Yaponiya mustamlakachiligining ta'lim sohasidagi zo'ravonligi kuchaydi. Chunki 1943- yil 3- avgustda " 4- Choson ta'lim buyrug'i " imzolandi. Jumladan shu qatorda, yuqori va o'rta ta'lim maktablari 4 yilga kamaytirildi. Dasturdan esa koreys tili fani olib tashlandi. Uning o'rniga esa yapon tili darsligi kiritildi.

Umumiy Arxiv qo'mitasiga qaraganda ma'lumotlari o'sha paytki Koreya savodxonlik darajasi 1944- yilda 13,8% ni tashkil etgan. Fikrimizning boshida aytib o'tkanimizdek Yaponiya mustamlakasidan ozod bo'lgan Koreya endilikda oldinda ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi ulardaham turadi. 1963- yildan boshlab Koreya ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor ortdi. Prezidenti Chon Du Xvon mamlakatda 1981- yili shaxsiy ta'lim berish, xususiy ta'lim maskanlari faoliyatini cheklab qo'ydi. 1992- yilga kelib esa boshlang'ichlar rivojlanishi uchun hukumat tomonidan maktablarga bir qancha imtiyozlar yaratiladi. Boshlang'ich maktablarning ro'li juda ham muhim zamonaviy Koreya ta'lim tizimida. Boshlang'ich ta'lim Uch Koreya o'quv yilida 1- martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilingan. Lekin Koreyada 1- marta bayram bo'lganligi tufayli 2- marta boshlanadi. 6 yildavom





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Koreyada o'rta ta'limesa 3yil davometadi. Darslar 45 minutdan belgilangan, 1yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rta ta'lim maktablaridaijtimoiy fan, jismoniy tarbiya, axloq, davlat tili, chet tili, musiqa, san'at va yana shu kabi 10gayaqinfanlar o'qitiladi. O'rta maktabda esa o'quvchilar uchun tanlov fanlar mavjud.

O'rta maktab tugatilgandan so'ng yuqori maktablarda ta'lim boshlanib davomettiriladi. Yuqorimaktablar bir qancha turlarga bo'linadi. Bular, davlat yuqori maktablar, umumiy yuqori maktablar,xususiy yuqori maktablar. Yuqori maktablarni yuqori tashkilotlar tomonidan boshqarishgan. Davlatyuqori maktablarni esa vazirliklar boshqargan. Hattoki yuqori maktablar bir qancha o'qitishfanlarigako'ra turlarga ham bo'linadi. Bulardan, chet tili maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, maxsusmaktablar, jismoniy tarbiya maktablari, umumiy maktablar va yana san'at maktablariga. HattokiKoreyada maxsus tashkil etilgan ta'lim vazirligi tomonidan tuzilgan maktablar hambor. Ular xalqarotilga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat bo'ladi.

Koreya yarimorol shimolida KXDR va janubida Koreya Respublikasi 1948-yilgakeolibikkidavlatga bo'linadi. Koreya davlatida insonparvarlik, ta'lim, tinchlik, adolat eng muhumi haloliktushunchalariga e'tibor juda katta bo'ladi. Janubiy Koreyada madaniyati va urf-odatleri o'zarobir -birgachambarchas bog'liq bo'ladi. Ular ya'ni koreya xalqi Gregoriyan kalendariga ko'ra kunkechirishadi.Shuning uchun ularni bayramlari alohida ajratilgan bo'ladi. Ammo ba'zi bayramlari oyyaqqvimidanishonlanadi. Masalan, Koreya davlatida yangi yil 1- yanvar kuni nishonlanadi. Dekabr oyiningo'rtalarida ko'chalarini, uylarini, bezashni boshlashadilar. Koreyada yangi yilni nishonlashni istaydiganinsonlar juda ham ko'p. 1- mart kuni esa Mustaqillik kuni har yili nishonlanadi. Chunki bubayramKoreya Yaponiya ishg'olidan qutilishi bilan bog'liq. Koreya Milliy ozodlik kuni 15- avgustdaharyilinishonlaydilar. Bu kunda barcha koreyaliklar AQSh va Sovet Ittifoqi Koreyani





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

yillik Yaponiyaga mustamlakachiligidan ozod qilgan kunni xotirlaydi. Shu kabi boshqa bayramlar ham alohida nishonlanadi.

Shu kabi Koreya ta'lim tizimi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham Koreya ta'lim tizimi boshqa mamlakatlar ta'lim tizimidan ajralib, sifati bo'yicha dunyoda birinchi o'rindaturadi. Hattoki iqtisodiy jihatdan ham dunyoning eng yetakchi davlatlaridan. Koreya mamlakati o'zining brendlari, katta-katta kompaniyalari bilan mashhur bo'lib ajralib ham turadi.

XXI asrda dunyo mamlakatlari ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda. Har bir jamiyat taraqqiyotida ilm-fan, bilim va tarbiya asosiy omil hisoblanadi. Shu boisdan ham zamonaviy pedagogika fani nafaqat nazariy g'oyalarni, balki amaliy tajribalarni ham o'z ichiga olib, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda ta'lim tizimi o'ziga xos milliy qadriyatlar, madaniyat va ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqib shakllanmoqda. Masalan, rivojlangan davlatlarda innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish uslublari keng qo'llanilmoqda. AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya kabi davlatlarda o'quv jarayonida raqamli ta'lim vositalari, sun'iy intellekt, onlayn platformalar keng tatbiq qilinmoqda. Shuningdek, ko'plab davlatlarda ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Endilikda dars jarayoni faqatgina ma'lumot yetkazish emas, balki shaxsning ijtimoiy, ruhiy va kasbiy rivojini ta'minlash vazifasini ham bajaradi. Pedagogika fani esa doimiy ravishda yangilanib, zamonaviy talablar asosida rivojlanmoqda. Masalan, "inklyuziv ta'lim", "kritik fikrlash", "kompetensiyaga asoslangan yondashuv", "hayot davomida o'qish" kabi tushunchalar butun jahon pedagogikasida keng qo'llanilmoqda.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligining e'tirof qilingani haqiqatdir. Shu tufayli ham rivojlangan mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

mablag miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Masalan, yaponlarda "maktab muvaffaqiyat va farovonlik timsoli"gina bo'lib qolmay, "u insonlarni barkamollashtiradi", degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan. Ta'lim to'g'risida g'amxo'rlik qilish taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni "Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch" deb hisoblagan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni ikki mingdan ortiq. Fransiya, AQSh, Yaponiyada ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQShda xalqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga qaratilgan. qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda. Germaniyada to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy o'quv fanlari bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda. Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi o'quv fanlariga bo'linadi. Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinoq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan,





**JOURNAL OF  
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

umumiy oʻrta taʼlim maktablarining yangi musiqa taʼlimi oʻquv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini oʻrganish ham kiritilgan. Shuni taʼkidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda XX asrning 60-80-yillarida tabiiy-ilmiy taʼlim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, baʼzi hollarda astronomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSH va Frantsiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil oʻqitiladi. Oʻquv dasturlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo boʻla boshladi. Fransiyada XX asrning 70-80-yillarda toʻliqsiz oʻrta maktablar oʻquv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiygumanitar kurslar kiritiladi. Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar oʻquv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish toʻla amalga oshirildi: Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz oʻquv soatlari ajratildi. XX asrning 70-yillarida AQShda kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni oʻqituvchi buyrugʻi bilan ish tutish, koʻproq oʻquvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatin berishdan iborat. Taʼlim tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashgʻulot, oʻqituvchi konsultatsiyasini oʻz ichiga oladi. Germaniya maktablarida sinfda oʻquvchilar sonini qisqartirish sari yoʻl tutilgan. Bunday oʻquvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Topshiriqlarni oʻquvchi mustaqil bajaradi, lozim boʻlganda oʻqituvchidan konsultatsiya oladi. Yuqorida bayon qilinganlardan koʻzda tutilgan maqsadlar:

-maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yoʻnalishlarini topish; oʻquvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yoʻllarini qidirib topish,

-oʻquvchilar kengashi, maktab tarbiyaning yangi shakllarda kengashlaridan, tarbiyaviy oʻyinlardan foydalanish;

-maktab oʻquv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning oʻzaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish;

-maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish, kasbga yoʻnaltirish ishlarini qayta tashkil etish;





# JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

- tabaqalashtirib o‘qitishni yo‘lga ko‘yish, maxsus o‘kuv muassasalarini (xam iqtidorli, ham aqliy, jismoniy zaif o‘quvchilar uchun) rivojlantirish;
- yangi, ya'ni o‘quv texnik vositalarni ta'limdagi salmog'ini oshirish, o‘kituvchilar uchun kompyuter ta'limini yo‘lga ko‘yish;
- pedagogik g'oyalarni amalga oshirishda keng kamrovli tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi global miqyosda yangilanib, o‘zaro tajriba almashinuvi, xalqaro hamkorlik orqali yanada yuksalmoqda. Menimcha, pedagogika fanining bugungi rivoji kelajak avlodlarni barkamol, bilimli va ijodkor qilib tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davrda jahon ta'limi tizimi fundamental o‘zgarishlar bosqichidan o‘tmqda. Pedagogika fani esa faqat bilim o‘rgatuvchi emas, balki shaxsni hayotga tayyorlovchi, uning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi va unga doimiy o‘sishga bo‘lgan istakni uyg‘otuvchi fan sifatida yangi mazmun va shaklga ega bo‘lmqda. Kelajakdagi muvaffaqiyat ushbu innovatsion tendensiyalarni qanchalik samarali qo‘llash va barcha uchun qulay, adolatli ta'lim imkoniyatlarini yaratishga bog‘liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.05.2023 yildagi PF-79-son
2. B.Xodjayev “Umumiy pedagogika” 1992-y. T. 416 b.
3. Pedagogika tarixi, A. Zunnunov, “Sharq” nashriyoti, T: 2004, 332b.
4. <https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi>
5. <https://prep.uz/news/umumiy/koreya-respublikasi-ta-lim-tizimi>

